

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

10.2023

**Ilmiy-nazariy, metodik jurnal
2001-yildan nashr qilina boshlagan**

Urganch – 2023

Bosh muharrir, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent **YO'LDOSHEV Ro'zimboy**

TAHRIR HAY'ATI:

ABDULLAYEV Bahrom, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
ABDULLAYEV Ravshanbek, tibbiyot fanlari doktori, professor (TATU UF),
ABDULLAYEV O'tkir, tarix fanlari doktori (UrDU),
ATADJANOV Ilxam, geografiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
ATAYEV Shokir, yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),
BERDIMUROTOVA Alima, falsafa fanlari doktori, professor (QDU),
DAVLETOV Sanjarbek, tarix fanlari doktori, professor (UrDU),
DO'SCHONOV Tangribergan, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),
ERMETOVA Jamila, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
HAJIYEVA Maqsuda, falsafa fanlari doktori, professor (UrDU),
IBRAGIMOV Zafar, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (PhD, UrDU),
IMOMQULOV Sevdiyor, fizika-matematika fanlari doktori, professor (NavDPI),
JUMANAZAROV Doniyor, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
JUMANIYAZOV Maqsud, texnika fanlari doktori, professor (UrDU),
JUMANIYOZOV Otaboy, filologiya fanlari nomzodi, professor (UrDU),
KALANDAROV Aybek, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, mas'ul kotib, UrDU),
KAVALYAUSKAS Vidas, gumanitar fanlar doktori, professor (Litva universiteti),
NAVRUZOV Qurolboy, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
OTAMURODOV Sa'dulla, falsafa fanlari doktori, professor (Toshkent, Kimyo-texnologiya instituti),
PRIMOV Azamat, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (UrDU),
QUTLIYEV Uchqun, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
RUZMETOV Surojbek, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),
RO'ZIYEV Erkinboy, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),
SADULLAYEV Azimboy, fizika-matematika fanlari doktori, akademik (O'zMU),
SADULLAYEVA Nilufar Azimovna, filologiya fanlari doktori (O'zMU),
SALAYEV San'atbek, iqtisod fanlari doktori, professor (Xorazm viloyati hokimligi),
SALAYEVA Muxabbat Soburovna, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),
SATIPOV G'oiptazar, qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor (UrDU),
XODJANIYOZOV Sardor, pedagogika fanlari doktori, dotsent (bosh muharrir o'rinbosari, UrDU),
YAKUBOV Jamoliddin, filologiya fanlari doktori, professor (O'zDJTU),
O'ROZBOYEV Abdulla, filologiya fanlari doktori (UrDU),
O'ROZBOYEV G'ayrat, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
G'AYIPOV Dilshod, filologiya fanlari doktori, dotsent (UrDU).

**JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN•JURNAL
OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI•2023 10 (197)**

MUASSIS: Urganch davlat universiteti•Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-noyabrda ro'yxatdan o'tgan•**GUVOHNOMA № 1131.**

man, har qanday chet tilida yozilgan asarni tarjimonlar o‘z ona tilida o‘qiguvchilarga yetkazib berish uchun xuddi shunday usulni qo‘llaydi. Chunki asar o‘quvchiga qanchalik ruhiy yaqinlik baxsh eta olsagina e’tirof qozonadi. Nemis tilidagi ushbu band quyidagicha:

*Wenn ich an deinem Hause
Des Morgens vorüber geh’,
So freut’s mich, du liebe Kleine,
Wenn ich dich am Fenster seh’.
Mit deinen schwarzbraunen Augen
Siehst du mich forschend an:
Wer bist du, und was fehlt dir,
Du fremder, kranker Mann?*

“Kranker Mann” so‘zi nemis tilidan tarjima qilganda “betob yigit” ma’nosini anglatadi. Ishq dardida betob bo‘lgan yigit obrazini Mirtemir mumtoz asarlarimizga xos ravishda qalandar obrazi bilan berishni ma’qul topgan. She’rdagi sharq go‘zallariga xos bo‘lgan sifatlashlar ham nemischa variantida unday jaranglamaydi. “Shahlo ko‘zlar” so‘zini Haynrix Hayne “qora jigarrang ko‘zlaring bilan” deya tasvirlaydi. O‘zbek tilida aynan shahlo so‘zining ma’nosi qop-qora, porlab turuvchi ko‘zga nisbatan qo‘llanadi. “Qora jigarrang ko‘zlaring bilan menga savol bilan boqarsan” degan misrani Mirtemir o‘zbekona so‘zlar bilan qo‘llab, hatto “kiprik qoqmay turmoq” iborasining hayronlik yoki savol nazari bilan boqish kabi ma’nolarini bildirishini inobatga olib, shunday go‘zal iborani she’rga olib kiradi. Ammo xuddi shu she’rni Nurmuhammad Abduzoirov ham tarjima qilgan va u ko‘zga aloqador sifatlashni o‘z holicha qo‘llashni ma’qul ko‘radi:

*O jigarrang ko‘zlaring
So‘roq qilar o‘shal dam:
– Kimsan, seni ne qiynar,
Begona, xasta odam?¹*

Yuqoridagi bandda qalandar obrazini begona xasta odam deb qo‘llangan. So‘zma-so‘z tarjima qilganda tilga xiyonat qilmay, undagi bor so‘zlarni ona tilidagi ham xuddi o‘sha so‘z bilan qo‘llash yaxshi, albatta. Ammo Mirtemir ustoz tarjimasida obrazlarning sayqallanganligi o‘quvchini o‘ziga maftun etmay qo‘ymaydi. Tarjimada she’r o‘girilayotgan til tabiati, shu til bulan shakllangan adabiyot katta rol o‘ynaydi. Har bir tilde yangrovchi turli adabiyotning turlicha o‘ziga yarasha ohanggi bo‘ladi. Sodda so‘zlarda bayon qilish o‘quvchiga osonlik tug‘dirsa, qalandar yoki shahlo kabi mumtoz ohangni ta’minlovchi so‘zlar she’r jozibasini yanada oshiradi.

Xudjayeva Ra’nohon Mitalibjonovna (A.Navoiy nomidagi TDO‘TAU

Tajima nazariyasi va amaliyoti kadefrasi dotsenti, PhD; e-mail: bagira81@inbox.ru)

BADIIY TARJIMADA OMONIMLARNING “KONTEKSTUAL ASSOTSIATIV TARJIMA” USULINING ILMIY ASOSI

Annotatsiya. Ushbu maqola badiiy tarjimada omonimlarning “kontekstual assotsiativ tarjima” usulining ilmiy asoslanishidir. Omonimlarni tarjima qilishning kontekstual assotsiatsiyasidan kelib chiqqan holda tarjima qilish usuli taklif qilinadi va asoslanadi, bu esa tarjimada omonimlarning ma’no murakkabligi va rang-barangligini saqlab qolish va yetkazish imkonini beradi. Bu usul tarjimonlar uchun badiiy matnlar bilan ishlashda foydali vosita bo‘lib, uning samaradorligi tarjima matnlarining real namunalarida sinovdan o‘tgan. Olib borilgan izlanishlar natijasida shunday xulosa qilishimiz mumkinki, badiiy tarjimada omonimlarning “kontekstli assotsiativ tarjimasi” usulidan foydalanish tarjimada omonimlarning asl ma’nosi va emotsional mazmunini yanada to‘g‘ri va sifatli yetkazilishiga xizmat qiladi.

Аннотация. Данная статья представляет собой научное обоснование метода «контекстно-ассоциативного перевода» омонимов в художественном переводе. На основе контекстуальной ассоциации омонимов предложен и обоснован метод перевода, позволяющий сохранить и передать смысловую сложность и многообразие омонимов при переводе. Этот метод является полезным инструментом переводчиков при работе с художественными текстами, а его эффективность проверена на реальных примерах переведенных текстов. В результате проведенного исследования можно сделать вывод, что использование метода «контекстного ассоциативного пере-

¹ Haynrix Hayne. She’rlar. www.nodirabegim.uz

вода» омонимов в художественном переводе служит для более правильной и качественной передачи исходного значения и эмоционального содержания омонимов.

Annotation. *This article is a scientific justification of the “contextual associative translation” method of homonyms in literary translation. Based on the contextual association of homonyms, a translation method is proposed and justified, which allows to preserve and convey the meaning complexity and diversity of homonyms in translation. This method is a useful tool for translators in working with literary texts, and its effectiveness has been tested on real examples of translated texts. As a result of the conducted research, we can conclude that the use of the method of “contextual associative translation” of homonyms in literary translation serves to convey the original meaning and emotional content of homonyms more correctly and qualitatively.*

Kalit so‘zlar: omonimlar, tahlil, semantika, tarjima, kontekst, muqobil, assotsiatsiya, metod.

Ключевые слова: омонимы, анализ, семантика, перевод, контекст, альтернатива, ассоциация, метод.

Key words: homonyms, analysis, semantics, translation, context, alternative, association, method.

Har bir badiiy asar bilim manbai, dunyoqarashni kengaytirishdir. Fundamental hisoblangan buyuk asarlarimizni o‘zga tillarga tarjima qilinganligini yoxud qilinayotganligini ko‘rish quvonarli, albatta. Bunda ona-Vatanga bo‘lgan muhabbatimiz, g‘ururimiz oshishi aniq.

Har bir millat uchun o‘z ona tilida o‘qish, fikrni bayon etish maroqlidir. Biroq til bilmaslik, noiloj o‘sha asar tarjimasini o‘qishga majbur. O‘zbek adabiyoti ham oxirgi yillarda ko‘plab fundamental asarlarning tarjimasini bilan boyidi. Lekin bajarilayotgan tarjimalarning aksariyati negadir o‘zbek tili tabiati, til qoidalariga mos kelmaydi. Aksar kitobxon g‘aliz jumla, noto‘g‘ri, “Google translate”ga solingan tarjimalar haqida ijtimoiy tarmoqlarda tez-tez qoldirilayotgan fikrlarga jiddiyroq e‘tibor berish kerakligiga ishora qiladi.

Tarjima, aslida, qanday jarayon? Nega O‘zbekistonda tarjima kitoblar ko‘p chop etilsa-da, ularning ancha-munchasi til tabiatiga yot bo‘lib qolmoqda? Tarjimonlarning moddiy va ma‘naviy qadri qanday? Ularga qanday talablar qo‘yilishi kerak kabi muammoli, o‘z javobini va tadqiqini kutayotgan masalalar ko‘p. Shu joyda badiiy tarjimonlar uchun yuqori sifatli kasbiy tayyorgarlik zarurligi mavjud, ammo hozirgi davrda tarjimonlikning turli parametrlari hali yetarlicha professionalashtirilmagan.

Tadqiqotning asosiy jarayonlaridan biri hisoblangan “kontekstual assotsiativ tarjima” metodiga asos solish va ushbu metodni badiiy asarlarni tarjima qilishda qo‘llashni ilmiy asoslashdir. Shunga ko‘ra, quyidagicha mezonlar yaratildi:

1. “Kontekstual assotsiativ tarjima” metodi orqali turli xil badiiy asarlarni asl tabiatini anglash.
2. “Kontekstual assotsiativ tarjima” metodi mutaxassis-tarjimon uchun asliyatni kitobxonga denotativ ma‘noni uzatish.
3. “Kontekstual assotsiativ tarjima” metodi orqali badiiy asarlarda uchrovchi polisemantik, omonimik, sinonimik, polimorfemik va hokazo so‘zlarni mohirona tarjima qilish.
4. “Kontekstual assotsiativ tarjima” metodi asliyat matnida “yopiq” tub mohiyatini anglanadi.
5. “Kontekstual assotsiativ tarjima” metodining prinsiplari tarjimoni muqobillashtirishga o‘xshaydi, chunki unda lug‘atdagi so‘zlarning asl ma‘nolariga nisbatan qarama-qarshiliklar mavjud bo‘ladi. Chunki ushbu metoddan foydalanilganda, tarjima qilingan so‘zlar lug‘atda keltirilgandan farq qilishi mumkin. Bunday holda, tarjimonning asosiy yo‘nalishi kontekstdir, shuning uchun usulning o‘zi tarjima-dagi lug‘at yozishmalarini kontekstual, ya‘ni mantiqiy bog‘liqlik bilan almashtirishdan iboratdir.

Demak, omonimlarning kontekstual assotsiativ tarjima usulida tarjimon omonimlar bilan bog‘liq bo‘lgan assotsiyalar va tushunchalardan eng mos tarjimoni aniqlash uchun foydalanadi. Kontekstual assotsiativ tarjima so‘zning o‘ziga xos ma‘nosini aniqlash va tegishli tarjimoni tanlash uchun ishlatiladigan kontekst hisobga olinadi.

Kontekstual-assotsiativ tarjima tillar orasidagi kontekstual va assotsiativ aloqalarni solishtirishga asoslangan tarjima usulidir. Badiiy asarlarda qo‘llangan omonimik so‘zlar tarjimasida bu usul keng qo‘llanilishi kerak, chunki mualliflar, ko‘pincha, so‘z va boshqa stilistik vositalarni yaratish uchun omonimlardan foydalanadilar. Bu metodning asosini matndagi so‘z, iboralarning semantik munosabatlarini chuqur tahlil qilish hamda ularning konseptual, milliy-madaniy xususiyatlarini tushunish zaruratini tashkil etadi.

Har bir tilda badiiy tarjima masalasi murakkab aqliy faoliyat bo‘lib, manba va tillarni, shuningdek, tillarning adabiy hamda madaniy tizimlarini bilishni talab etadi. Barchamizga ma‘lum bo‘lgan badiiy tarjima bilan shug‘ullanish uchun qo‘llaniladigan usullar, strategiyalar, uslublar mavjud. Ehtimol, rivojla-

nishda to'xtamayotgan zamonaviy dunyoimizda barcha muammoli vaziyatlarni hal qilib yoki o'rganib bo'lmay, ammo tarjimonlar uchun maxsus yaratilgan tizimlarni tor doirada o'rgansa bo'ladi.

Inson tomonidan amalga oshirilgan tarjimoni elektron mashinada bajariladigan tarjimalar bilan hech qachon solishtirib bo'lmaydi. Chunki bu yerda gap faqat so'zlarni tarjima qilish haqida ketmaydi, balki badiiy asarlarda uchrovchi omonimik, sinonimik, antonomik so'zlarni o'z ma'nosini yo'qotmagan holda ko'chirishga to'g'ri keladi. Bu esa mutaxassis tarjimonidan intellektual ijodkorlikni talab etadi, chunki inson omilini hech qanday mashina yoki dasturiy ta'minot uddalay olmaydi.

Global dunyoda qardosh tillar yoki qardosh bo'lmagan tilli asarlarni tarjima qilish ahamiyati o'sib bormoqda. Bir-biriga begona bo'lgan madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro tushunish imkoniyati bugungi kunda faqat badiiy tarjimalar orqali hal qilinishi mumkin. Chunki turli tillarda so'zlashuvchi xalqlar va madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro tushunish to'siqlari, chegaralari tarjima asarlar orqali bosib o'tiladi. Chunki tarjimashunoslik fani orqali biz boshqa madaniyatlar, ularning tafakkuri, o'ziga xosligi bilan tanishish imkonini beradi.

Badiiy adabiyot tarjimasi boshqa tarjima turlaridan tubdan farq qiladi. Zero, badiiy tarjimaning asosiy tamoyili hukmron poetik kommunikativlik funksiyadir. Demak, asarlarning badiiy tarjimasi kitobxonga ma'lumot yetkazish bilan bir qatorda, estetik vazifani ham bajaradi. Asarda yaratilgan badiiy obraz o'quvchiga ta'sir ko'rsatish uchun mo'ljallangan, shuning uchun badiiy tarjima "usta"lari matnning shu xususiyatini hisobga olishlari kerak. Chet tilidagi badiiy asarni professional tarjimon aralashuvizisiz tushunib bo'lmaydi.

Badiiy matnlarni tarjima qilishda aynan she'riy tarjima turi informativ turdan o'zgachadir. Badiiy tarjimada asosiy maqsadiga erishish kitobxon uchun ma'lum bir obraz yaratishdir. Bu esa yozuvchiga ancha qiyin mas'uliyatni yuklaydi. Shuning uchun badiiy asarlar tarjimasida standart qoidalardan ayrim holdalarda chetlanishlar qo'llaniladi.

To'g'ridan to'g'ri tarjima badiiy asarlar matnining chuqurligi va mazmunini aks ettira olmaydi. Badiiy tarjimon materialni boshidan oxirigacha qayta ishlaydi. Bunda tarjimon kontekstga qarab so'zlarni sinonimlar, troplar, ekvivalent so'zlar bilan almashtirishda yoki gapning tuzilishi o'zgartirilganda qo'llashadi. Tarjimon ishi odatiy algoritmgaga muvofiq amalga oshiriladi. Asar tarjimon tomonidan to'liq o'qilibgina qolmay, alohida atamalar, omonimlar, iboralar va hokazolar ajratib chiqiladi. Shundan so'ng bu qismlarning tarjimasi bevosita davom etishi orqali tarjima jarayoni bir necha bosqichlaridan o'tadi.

Badiiy tarjima juda mahorat talab ish. Nafaqat matnning adekvatligini, balki tarjima qilingan asarni o'qiyotgan kitobxon asl nusxani o'qiyotgandagidek tasavvurini ham uyg'ota olishi kerak.

Tarjima jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolardan biri tuzilishi jihatidan yoki ma'nosi-ning ekvivalenti ko'p bo'lgan so'zlarni tarjima qilish muammosidir, uning mavjudligi bir qator sabablarga bog'liq, xususan: obyekt, hodisa yoki tushunchaning stilistik, leksik xususiyatlarining ko'pligidir. Badiiy asarlar tarjimasida shunday yondashuv "kontekstual-assotsiativ tarjima" usulidir.

Kontekstual-assotsiativ tarjima usuli so'zning ma'nosi uning kontekstiga qarab belgilanishi, tarjimon ko'zda tutilgan fikrni to'g'ri yetkazish uchun uning turli assotsiatsiyalarini hisobga olishi kerak degan fikrga asoslanadi.¹ Bu usul, ayniqsa, omonimlar, ya'ni, yozilishi va talaffuzi bir xil, ammo ma'nolari har xil bo'lgan so'zlar bilan ishlashda foydalidir.

Bu usulga ko'ra, tarjimon, avvalo, omonimning manba tildagi mumkin bo'lgan turli ma'nolarini aniqlashi kerak. Keyin ular qaysi ma'no eng mos kelishini aniqlash uchun so'z ishlatilgan kontekstni tahlil qilishlari kerak,² nihoyat, ular asosiy tilda so'zning har qanday muqobilini hisobga olgan holda, mo'ljallangan ma'noni aniq yetkazadigan so'zni tanlashlari kerak.

Tarjimaning kontekstual-assotsiativ usulining ilmiy asosi til va tafakkur o'rtasidagi munosabatni o'rganuvchi kognitiv tilshunoslik sohasiga to'g'ri keladi. Kognitiv tilshunoslarning fikricha, so'zlarning ma'nolari turg'un emas, balki ular qo'llanilayotgan kontekstga qarab, doimiy ravishda takomillashib, o'zgarib turadi.³ Demak, omonim ma'nosi qaysi kontekstda qo'llanishiga qarab, o'zgarishi mumkin va tarjimon tegishli tarjimoni tanlashda buni hisobga olishi kerak. Bundan tashqari, tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, so'z ishlatilgan kontekst uning tafakkur tomonidan qanday qayta ishlanishi va tushunilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Misol uchun, tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, so'z jumlada berilganda, tafakkurda uni turlicha qabuli bo'ladi.

¹ "Context-associative Translation". Multitran, multitran.com/m.exe l1=1&l2=2&s=context-associative+translation.

² "Translation Techniques". TranslationDirectory.com, translationdirectory.com/articles/article1908.php.

³ Lakoff George and Mark Johnson. *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press, 1980.

Jozef Konradning “Heart of Darkness” asarida¹ kontekstual-assotsiativ tarjima talab bir misolni ko‘rishimiz mumkin. Ushbu asarda *oq* so‘zi omonim bo‘lib, rangni ham, rangning yo‘qligini ham anglatishi mumkin. Masalan: “*There was a white fog, very warm and clammy, and more blinding than the night*” (Tundanda qorong‘u va quyuq tuman...). Kontekstda “oq” omonimi, odatda, tozalik, yorug‘lik va yorqinlik bilan assotsiatsiyalashadi, ammo bu yerda u so‘z “quyiq tumanda ko‘rinmaslik” ma‘nosida kelishi ko‘rishimiz mumkin.

U. Shekspirning fundamental hisoblangan “Otello” asarida ham, albatta, omonimlar qo‘llangan, lekin bu asardagi omonimik so‘zlarni tarjima qilishda g‘alazliklar kelib chikgan. Masalan, (*asliyat*) *Othello: I’ll tear her all to pieces*² (*tarjimon*). *Otello: Men uni sog‘ qo‘ymayman*.³ Ushbu misolda omonimik qator so‘z kontekstda *janjal* ma‘nosi bilan assotsiatsiyalashmoqda, shuning uchun tarjimada *parchalamoq* so‘zini qo‘yish o‘rniga tarjimon *kontekstual assotsiativ tarjima* usulidan foydalangan holda, *sog‘ qo‘ymayman* so‘zini qo‘llagan. Bu usul orqali tarjimon muammolarsiz qo‘llanayotgan omonimik qatorlarning ekvivalent bo‘lgan so‘zni tanlashi demakdir, ya‘ni, o‘sha omonimik so‘zning tarjimasi emas, ma‘no jihatidan mos bo‘la oladigan sinonim so‘zni qo‘llaydi.

Ikkinchi misolni tahlilga Dj. Ornellning⁴ “1984” novellasida qo‘llanilgan inglizcha *light* omonimik qatorini tortsak. Badiiy asarda omonimik so‘zning tarjimasida semantik maydon hisobga olinmaganligi sababli ma‘nosi noto‘g‘ri tarjima qilingan. Masalan, (*asliyat*) “*Oceania, ‘tis for thee’ gave to lighter music*”. (*tarjimon*).⁵ “*Senga Okeyaniya*” madhiyasi *yengil* musiqaga almashdi. (*bizning tarjima*) “*Okeyaniya*” madhiyasi *sokin* musiqa bilan uyg‘unlashdi. Ushbu misolda ham semantik ma‘nosi noto‘g‘ri qo‘llanilgan. Aslida, *light* omonimik qatorining musiqaga nisbatan *yengil* ma‘nosi tanlanilishi kerak edi. Tadqiqot izlanishlari natijasida ilmiy asoslangan tarjima usuli kontekstual-assotsiativ tarjima usulidan foydalangan holda *yengil* ma‘nosi *sokin* ma‘nosi bilan almashtirilishi kerak edi. Chunki o‘zbek tilida *musiqaga* nisbatan *yengil* so‘zi emas *sokin* so‘zi muqobil bo‘lib, badiiy estetik jihatini ta‘minlaydi.

Tahlildan ko‘rishimiz mumkinki, kontekstual-assotsiativ tarjima badiiy matnlardagi omonimik so‘zlarni tarjima qilish uchun ayni ma‘qul usul, chunki u so‘z o‘yinlari va stilistik vositalar effektlarini saqlab qolish, shuningdek, asl nusxaning madaniy semantikasini yetkazish imkonini beradi.

Omonim so‘zlar barcha tillardagi badiiy asarlardagi roli juda muhim, chunki o‘xshash yoki o‘xshash so‘zlar butunlay boshqa narsalarni anglatishi mumkin. Ular tufayli asarning jizibasi noto‘g‘ri talqin qilinmasligi uchun tarjimon “kontekstual assotsiativ tarjima” foydalangan holda, kontekstga e‘tibor berish muhimdir.

**Abdullaeva Dilrabo Zubayevna (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi xodimi)**
**O‘ZBEK KINO SAN’ATIDA AYOLLAR OBRAZI HAMDA SAN’AT SOHASIDA GENDER
TENGLIGI MASALASI**

Annatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek kino san’atida ayollar obrazi hamda san’at sohasida gender tengligi masalasi xususida fikr-mulohazalar bildirib o‘tilgan. Shuningdek, o‘zbek kino san’ati hamda unda obrazlar talqini haqida batafsil ma‘lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, madaniyat va san’at sohasi faoliyatida gender tengligi masalasi va uning jamiyat rivojlanishida tutgan o‘rni haqida ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan.

Аннотация. В данной статье высказаны мнения об образе женщины в узбекском кино и проблеме гендерного равенства в сфере искусства. Также дается подробная информация об узбекском киноискусстве и интерпретации образов. Кроме того, дана информация о проблеме гендерного равенства в сфере культуры и искусства и его роли в развитии общества.

Annotation. In this article, opinions are expressed about the image of women in Uzbek cinema and the issue of gender equality in the field of art. Also, detailed information about Uzbek film art and the in-

¹ Conrad Joseph – Heart of Darkness.

² CHICAGO Shakespeare, William, 1564–1616. Othello. 1622, Oxford :Clarendon Press, 1975.

³ Jamol Kamol tarjimasi. Shekspir Vilyam. Tanlangan asarlar. T., “Adabiyot va san’at” nashryoti, 1991, 272-bet; 784-bet.

⁴ G.Orwell. Nineteen Eighty-Four. A novel. London: Secker &Warburg. 1949.

⁵ K.Berdiyev. “1984” tarjimasi.

MUNDARIJA

21-OKTABR – O‘ZBEK TILI BAYRAMI KUNI

Xudoyberganov Ravshan Yusupovich. Yangi O‘zbekistonda o‘zbek tili taraqqiyotining yangi bosqichi.....3

FALSAFA

To‘xtayev Hakim Primovich. “Qadriyatlar transformatsiyasi” tushunchasining ijtimoiy-falsafiy tahlili.....6
Qodirov Davronbek Hoshimovich. Qushayriyning “Kitob ul-me’roj” asarida inson komilligi g‘oyasi.....10
Gulyamova Gulnoz Baxodirovna. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi va uning ma’naviy-axloqiy asoslari.....13
Xo‘jayev Davron Nuriddinovich. Sharq peripatetiklari qarashlarida adolat masalasi.....16
Samanova Shaxlo Boxtiyarovna. Ekologik muammolarning yuzaga kelishi va globallashuvi.....20
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich. Tasavvuf ta’limotining insonni qadrlash va uni barkamollikka erishishdagi ahamiyati.....22
G‘afurov Doniyor Oripovich. Maxdumi A’zamning “Asror un-nikoh” risolasida oila masalasining falsafiy tahlili.....24

TILSHUNOSLIK

Otaqulov Nodirjon Baxromaliyevich. Subkollokvial frazeologizmlarda variantlilik.....27
G‘aybullayeva Dildora Fayzulla qizi. Frazeologiya fanidagi makrokonsepsiya va uning taqin etilishi.....32
Begimov Odil To‘xtamishovich. O‘zbek tili ergonomlarida chet tili elementlarini kiritish usullari.....35
Siddiqova Shoxida Isoqovna. O‘zini bo‘lmagan ko‘chirma gaplar shakllanishida antropotsentrik omillar.....38
Toshboev Bahrom Saidkulovich. X–XIII asrlarda fors-tojik tilida yaratilgan tarixiy asarlarda eroniy tillarga mansub toponimlar etimologiyasi.....41
Jamoliddinova Dilnoza Mirhojiddinova. Terminlar va lingvomadaniy birliklarning o‘ziga xosliklari.....43
Yusupova Gulxumor. Lingvistik genderologiya zamonaviy tilshunoslikning yangi yo‘nalishi sifatida.....46
Samandarov Rustam Do‘syorovich. Murakkab sintaktik qurilmalar derivatsiyasi va aplikativ model xususida ayrim mulohazalar.....48

ADABIYOTSHUNOSLIK

Xolmanova Shoxsanam. Mopassan ijodi va “Bel-Ami” romanining poetik tahlili.....52
Tursunkulov Sanjar Dilmurod o‘g‘li. 20-asrning birinchi yarmida ispan nasrining poetik xususiyatlari.....54
Boltayeva Gulchehra Shokirovna. Ozarbayjon adabiyotida muxammas janri takomili.....58
Qahharova Dilafro‘z Abdug‘afforovna. Bobur she‘riyatida ko‘ngil timsolining turfa taqinlari.....62
O‘roqova Nafosat Yoriyevna. She‘riyatda it obrazining ramzlashtirilishi.....68
Rasulmuxamedova Dilfuza. Ahmad Lutfiy Qozonchi “Bir vijdon uyg‘onur” asarida tarbiyaning o‘rni.....71

PEDAGOGIKA

Tkacheva Anastasiya Aleksandrovna. O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlari talabalarida ispan tili bo‘yicha ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish uchun “kahoot!” texnologiyasidan foydalanish.....74
Latipova Gavhar Shaykatovna. O‘quvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirish mazmuni va mohiyati.....80
Abdisheripova Shaydo Bahtiyor qizi. O‘quvchilarga kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim-tarbiya berishning o‘ziga xos xususiyatlari.....83
Sobirov Dilshod Solayevich. Ta’limni axborotlashtirish: ta’lim sohasida aktning texnik va texnologik imkoniyatlari.....85
Madaminov Uktam Ataxanovich. Oliy ta’lim muassasalarida fanlarni mobil texnologiyalar asosida o‘qitish metodikasi modellari.....88
Umarzoda Shohruh Azamat o‘g‘li. “Algoritmik tillar va dasturlash asoslari” fanini o‘qitishning umumiy xususiyatlari.....91
Samadova Svetlana Jontosheva. Oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlarining inglizcha nutqini o‘stirishning shakl, metod va vositalari.....94
Shadiyeva Nigora Sharipovna. Ma’ruza mashg‘ulotlarida masofaviy ta’limdan foydalanish texnologiyalari.....96
Jumayeva Hulkarxon Muhammadjonovna. Talabalarni variativ tahdidlardan himoya qilish texnologiyasi.....99
Sharifzoda Sardorbek O‘razboy tabib o‘g‘li. Pedagogik faoliyatda gender yondashuvini amalga oshirishning dolzarb muammolari.....101
Tagayev Odil Nurmuminovich. Bo‘ljak iqtisodchi mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning algortimik tahlili.....105

Xasanova Xurshida Naimovna. Maktab ta'limida kimyo fanini o'qitish jarayonini takomillashtirishda STEAM og'zaki kreativ topshiriqlaridan foydalanishning ahamiyati.....	108
Mamarajabov Shavkat Ergashevich, Nasriddinov Xasan Baxtiyor o'g'li. O'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish metodlari.....	112
Yarashev Komiljan Dexkanovich. Jismoniy tarbiya va sport ixtisosligidagi talabalarni tashkilotchilik faoliyatlariga tayyorlashda pedagogik jarayonning o'rni.....	114
Jiemuratova Gulxan O'temuratovna. Geografiya darslarining samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati.....	116
Abdullayeva Muxtasar Akmaljon qizi. Yarimo'tkazgichli va mikroelektron rele himoyasi qurilmalarini o'qitishni ishlab chiqarish bilan uzviy integratsiyasini yo'lga qo'yish.....	120
Ergashev Jamshid Qo'ldoshevich. Izojarayonlarga doir masalalarni yechish orqali o'quvchilarni fan olimpiadalari-ga tayyorlash.....	124
Abdurahmonova Diyora Akbarjon qizi. Integratsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda mantiqiy taffakurini rivojlantirishga tayyorlash metodikasi.....	128
Nabijonova Odina. Methodology as a Set of Forms, Methods and Techniques of the Teacher's Activity.....	131

ILMIY AXBOROT

Radjapov Ulug'bek Erkinovich. Voyaga yetmaganlarning ta'limga oid huquqlarini ta'minlashda prokuror nazorati.....	135
Xolov Sherali. Global iqtisodiy tendensiyalarning o'ziga xos xususiyatlari.....	137
Gulboyev Bobir. Hozirgi zamon sivilizatsiyasi: xususiyatlari va xarakteri.....	140
Mardiyev To'lqin Kulibayevich. Ingliz va o'zbek paremiologik birliklarida vatan konseptning metaforik ifodalani-shi.....	142
Gapparova Mehribon Tulqin qizi. Ingliz va o'zbek tillarida leksik sinonimlarning leksikografik tahlili.....	146
Barnoyeva Samarabonu Uchqun qizi. Antropotsentrik yondashuvning lingvomadaniyatshunoslikdagi aha-miyati.....	148
Achilov Oybek Rustamovich. Sarlavhada ilgari surish vositalarining aks etishi.....	150
Yusupova Kamola. Qadimiy Sharq va milliy madaniyatimizda ijtimoiy-siyosiy reklama alomatlari.....	153
Berdixanova Arzayim. O'zlashmalarni til tizimida tahlil qilish usuli.....	156
Bozorova Muxabbat Abduraxmonovna. Haynrix Hayne she'rlari o'zbekcha tarjimasida sharqona obraz ifo-dasi.....	159
Xudjayeva Ra'nohon Mitalibjonovna. Badiiy tarjimada omonimlarning "kontekstual assotsiativ tarjima" usuli-ning ilmiy asosi.....	162
Abdullaeva Dilrabo Zubayevna. O'zbek kino san'atida ayollar obrazi hamda san'at sohasida gender tengligi masa-lasi.....	165
Rejapov Izzatbek Olimbayevich. Sonlarning badiiy matndagi ramziy ahamiyati.....	168
Нажимова Гулям. Кинесика в художественных произведениях и ее функции в письменном тексте.....	172
Журабекова Хабиба Мадаминовна. Проблемы совершенствования коммуникативной компетенции студентов на занятиях русского языка.....	176
Муминов Нозим Наимович. Дискурс о возрождении суфизма.....	180
Абдурахмонова Хилола Рахматуллаевна. Отражение особенностей национального менталитета в посло-вицах русского и узбекского языков.....	183
Gavharoy Isroiljon qizi. Linguo Semantic Derivation of Terms of Tourism.....	186
Kholmakhmadova Nilufar Khasanovna. The Comparative Study of the Phenomenon of Polysemy and Synony-my.....	189
Elmirzayeva Ozoda Normuminovna. The Method of Developing Lexical Competence.....	192
Nilufar Jumayeva. Lexical and Semantical Features of Proverbs with "Plant" Components.....	195

“ILM SARCHASHMALARI”

Urganch davlat universitetining ilmiy-nazariy, metodik jurnali

Muharrir **Ro‘zimboy Yo‘ldoshev**
Texnik muharrir **Sherali Yo‘ldoshev**
Musahhihlar: **Туримова Тамара,**
Aybek Kalandarov
Ushbu songa mas’ul **Abdulla O‘rozboyev**

Terishga berildi: 21.10.2023
Bosishga ruxsat etildi: 31.10.2023.
Ofset qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84 1/8.
Rizograf bosma usuli. Tayms garniturası.
Adadi 250. Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma №. 49
Hisob-nashriyot tabag‘i 25
Shartli bosma tabag‘i 23
UrDU matbaa bo‘limida chop etildi.

UrDU matbaa bo‘limi matbaa faoliyatini boshlagani
haqida vakolatli davlat organini xabardor qilish to‘g‘risidagi
Tasdiqnoma (№3802-835f-ad22-c709-fbd1-1129-1986)
asosida faoliyat yuritadi.

Manzil: 220110. Urganch shahri, H.Olimjon ko‘chasi, 14-uy.
Telefon/faks: (0362)-224-66-01;
e-mail: ilmsarchashmalari@umail.uz
ilmsarchashmalari@mail.ru
Veb-sayt: www.ilmsarchashmalari.uz
Telegram: <https://t.me/ilmsarchashmalari>